

GAZLAR TARKIBIDAGI KISLORODNI ANIQLOVCHI SENSOR

Otabek Kuchkarov Artikovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Erdanov Fazliddin Faxritdinovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Eshkobilova Mavjudha Ergashboyevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1139246>

Annototsiya: Turli muxitlardagi kislorod miqdorini nazorati juda muxim vazifa bo'lib uning xal etilishiga ishlab chiqarishni qator saxalarida ixtiyoj katta. Shuning uchun aniq, yuqori tezlikga ega, selektiv, texnologik jihatdan ishlab chiqarish qulay bo'lgan kislorodni gaz analizatorini yaratish dolzarb vazifadir.

Kalit so'zlar: sezgir, selektiv, gaz, kislorod, sensor, analizator, texnologiya, elektrolit, elektrokimyoviy, konsentratsiya.

ДАТЧИК, ОБНАРУЖИВАЮЩИЙ КИСЛОРОД В ГАЗАХ

Аннотация: контроль содержания кислорода в различных средах является очень важной задачей, ее решение востребовано в ряде отраслей производства. Поэтому создание точного, скоростного, селективного, технологически удобного в изготовлении газоанализатора кислорода является актуальной задачей.

Ключевые слова: чувствительный, избирательный, газ, кислород, датчик, анализатор, технология, электролит, электрохимия, концентрация.

A SENSOR THAT DETECTS OXYGEN IN GASES

Abstract: the control of oxygen content in various media is a very important task, its solution is in demand in a number of industries. Therefore, the creation of an accurate, high-speed, selective, technologically convenient oxygen gas analyzer is an urgent task.

Keywords: sensitive, selective, gas, oxygen, sensor, analyzer, technology, electrolyte, electrochemistry, concentration.

Maqsad: Yuqori sezgir, selektiv va past xaroratlarda ishlaydigan atrof-muhit parametrlarining (harorat va bosimini) o'zgarishiga chidamli kislorod miqdorinini o'lhashning aniqligi va tezkorligini ta'minlaydigan kimyoviy sensor va gaz analizatorni yaratishdir.

Gaz va suyuqlik muxitidan kislorodni aniqlash usullari

Gaz aralashmalari tarkibidan kislorod konsentratsiyasini o'lhashning zamonaviy usullari juda xilma-xildir. Kislorodni nazorat qilish uchun gazni tahlil qilishning universal va an'anaviy usullari va kislorodning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq maxsus usullar keng qo'llaniladi. Ushbu sharh kislorodni fizik va fizik-kimyoviy xususiyatlariga qarab o'lhash usullarini tavsiflaydi. Bularga quyidagilar kiradi: kimyoviy, elektrokimyoviy, magnit, optik, xromatografik, termal (Termokonduktometrik, termokatalitik va boshqalar.) singari kislorod konsentratsiyasini o'lhash usullari. Ushbu usullar gaz aralashmalaridagi kislorod miqdorini aniqlash uchun keng qo'llaniladi.

Kislorodni aniqlashning kimyoviy usullari

Kislород konsentratsiyasini aniqlashning mavjud usullari orasida eng qadimgi, ammo hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani, kimyoviy Vinkler usuli bo‘lib qolmoqda. Bu usulda erigan kislорod yangi chuktirilgan Mn(II) gidroksid bilan miqdoriy reaksiyaga kirishadi.

Kimyoviy tahlil usullaridan volymometrik usul eng kup qullaniladi Usulning mohiyati tahlil qilingan gaz aralashmasining namunasi hajmining o‘zgarishini uning yonishi yoki sorbent tomonidan aniqlanadigan kislорodni tanlab yutilishi paytida o‘lchashdan iborat.

Gaz aralashmalarida yonish paytida molekulyar kislорod konsentratsiyasini aniqlash uchun katalizator tarkibini tanlash juda muhimdir. Shunday qilib, agar katalizator asbestga (60%) yutirilgan palladiydan (40%) iborat bo‘lsa, u holda O₂ butunlay vodorod bilan birikadi. Yonish paytida tahlil qilingan gaz aralashmasi namunasi hajmining kamayishini o‘lchashning asosiy kamchiligi vodorod generatoridan foydalanish zarurati hisoblanadi. Ish azot oksidi va kislорod o‘rtasidagi reaksiyaga asoslangan havoda kislорodni aniqlashning oddiy usuli ishlab chiqilgan. Reaksiya oxirida hosil bo‘lgan azot dioksidi suvda eriydi. Gaz hajmini kamaytirish orqali aralashmadagi kislорod miqdori tez va aniq topiladi.

Kislорodni aniqlashning elektrokimyoviy usullari

Gazni tahlil qilish uchun bиринчи elektrokimyoviy sensorlar XX asrning 70-yillari boshlarida paydo bo‘lgan. Biroq, bugungi kunda bunday sensorlar turli xil soxalarga qullanilmoqda.

Qattiq elektrolitli sensorda elektrolit sifatida keramik sirkoniy dioksidi ishlatiladi. ZrO₂ dan foydalanishga asoslangan qattiq elektrolitli sensori yordamida kislорodni aniqlash mexanizmlari taqdim etilgan. ZrO₂ning elektrolitlar xususiyatlari juda yuqori haroratlarda (taxminan 500-800 °C) namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat kislорod tarkibini o‘lchashda ZrO₂ sensoridan foydalanishni noqulay qiladi.

Avtomobil dvigatellarining chiqindi gazlarida O₂ ni aniqlash uchun ZrO₂ elektrolitli yangi miniatyura elektrokimyoviy sensori ishlab chiqilgan. Taklif etilgan sensor dizayni, sensorning sezgir elementini o‘rganilayotgan gaz tarkibidagi namlikdan himoya qilishni ta’minlaydi.

Kislорodni aniqlashning termomagnit usullari

Barcha gazlardan O₂ eng katta magnit sezuvchanlikka ega. O₂ tarkibini o‘lchash uchun termomagnit analizatorlarning ishlash prinsipi O₂ ning anomal magnit xususiyatlaridan foydalanishga asoslangan. Magnit sezuvchanlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchash qiyin, shuning uchun gaz aralashmalaridagi kislорod miqdorini o‘lchash bilvosita usullarga asoslangan. Bilvosita usullardan kislорodning harorati o‘zgarishi bilan uning magnit sezuvchanligidagi o‘zgarishlardan foydalanishga asoslangan termomagnit usul eng keng tarqalgan.

Haroratning oshishi bilan gazning magnit sezuvchanligi pasayadi, bu esa issiq gaz aralashmasining sovuq aralashma bilan doimiy ravishda majburiy oqimiga olib keladi, bunda isitiladigan gaz aralashmasi siljiydi. Olingan oqim termomagnit konveksiya oqimi deb ataladi.

Gaz analizatori sensori doimiy magnit qutblari orasiga joylashtirilgan gorizontal shisha iborat bo‘lib, o‘lchash xalqasining bir tomonida magnit maydon hosil bo‘ladi. O‘ramli qismlari muvozanatsiz ko‘prikning ikkita yelkasini ifodalaydi va o‘lchov elementlari sifatida xizmat qiladi. Olingan konveksiya gaz oqimi isitiladigan o‘ramdan issiqlikni uzatadi, buning natijasida sezgir elementning harorati va qarshiligi o‘zgaradi. Qarshilik farqi funksional jihatdan o‘rganilayotgan gaz aralashmasidagi kislорod konsentratsiyasi bilan bog‘liq. Ko‘prikning muvozanati o‘lchov moslamasi bilan belgilanadi, uning shkalasi kislорod konsentratsiyasi birliklarida baholanadi.

Kislорodni aniqlashning optik usullari

Hozirgi vaqtida adabiyotlarda optik kislorod sensorlarini yaratishga bir qator yondashuvlar tasvirlangan. Faol kislorodga sezgir element sifatida odatda ularda molekulyar kislorod o'tkazuvchan lyuminessent bo'yoqlarga asoslangan polimer kompozitsiyalari qo'llaniladi. U kislorod membranasi shaklida ishlab chiqariladi, u optik tolaning uchiga yoki ishlaydigan optik yacheykaga qo'llaniladi yoki biriktiriladi. Poliaromatik bo'yoqlar (masalan, piren yoki dekatsiklen) asosida polimer kompozitsiyalaridan foydalanish taklif qilingan kislorod-lyuminessent sezgir elementlar sifatida, shuningdek lyuminessent ruteniy komplekslari asosidagi N-oktil triyetoksisilan va tetryetoksisilandan iborat fosfor bilan shimdirilgan bir qator kserogellarning sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi. O₂ aniqlash uchun fosfor tris (4,7-difenil-1,10-fenantrolin) Ru2+kompleksi qullanilgan.

O₂ ni aniqlash uchun yangi florimetrik sensor taklif qilingan, uning ta'siri 1-dekil-4-(1-pirenil) butanatning floresanatini O₂ ta'sirida so'ndirishga asoslangan bo'lib, uning plyonkasi bilan sensor qoplangan.

PT-oktayetilporfirinni kislorod o'tkazuvchan elastik ftorli kopolimer matritsasiga kapsulalash orqali erigan kislorodning qattiq yupqa plyonkali sensori ishlab chiqarilgan. Sensor suvg'a botirilganda, erigan kislorod ishtirokida qisman zaiflashgan lyuminessensiya kuzatildi. Maksimal aniqlanadigan kislorod konsentratsiyasi 20 mg/l .

Kislorod konsentratsiyasini tez aniqlash uchun optik tolali sensorlarni ishlab chiqarish texnologiyasi tasvirlangan Sensor polimer materialdan tayyorlangan bo'lib, unda lyuminessent indikator immobilizatsiya qilingan.

Kislorodni aniqlashning lyuminessent usuli

Kislorodni aniqlashning istiqbolli usullaridan biri kislorod molekulalarining gaz o'tkazuvchan matritsalarda immobilizatsiya qilingan lyuminessent ko'rsatkichlar bilan o'zarot ta'siriga asoslangan lyuminessent usuldir. Bunday matritsa sifatida zol-gel kompozitsiyalardan foydalanishi mumkin, bular g'ovakli materiallar, polimer materiallar, seolitlar, va boshqalar bulishi mumkin.

Organik bo'yoqlar va politsiklik aromatik uglevodorodlar kislorodga sezgir lyuminessent indikatorlar sifatida ishlatiladi. Bunday materiallarga asoslangan sensorlar past fotostabillik va kislorodga sezgirlik bilan ajralib turadi.

Lyuminessent organometalik komplekslar Ru²⁺, Os²⁺, Ir³⁺, Pt²⁺, Rh²⁺, Pd²⁺, Au⁺ va hokazo. kengroq qullanila boshlagan.

Ditsianoplatinali komplekslar asosidagi indikatorlarning ko'rsatkichlarining afzalliklari ularni fotokimyoviy degradatsiyasini past darajasi, shuningdek silikon matritsasini neytralligi va barqarorligi bo'lishi kerak, kamchiliklari komplekslarning spektral xususiyatlarining ixcham yorug'lik manbalari bilan yomon muvofiqlashuvi (ko'rsatkichlari 300-400 nm oralig'ida yutilishga yega).

Ishlab chiqarilgan nanokompozit materiallar parametrлari maxsus ishlab chiqilgan gaz o'lhash tizimi orqali tekshirildi. O'lchovlarning barchasi gazning 40 % nisbiy namligida olib borildi. Plyonkalarning doimiy qarshiligi V7-35 voltmetr orqali o'lchandi. Toza havoda polianilin asosida tayyorlangan plyonkalarning qarshiligi 0,25 dan 0,85 kOm gacha bo'lishi kuzatildi. Shuni ta'kidlash lozimki, polianilin va metall oksidi asosida olingan kompozit materiallar, aniqlanayotgan komponentlarga sezgir hisoblanadi.

Sensorning kislorodga bo'lgan tasiri tarkibida aniqlanadigan kislorodning (10%) konsentratsiyali standart aralashmasi yordamida o'rganildi. Olib borilgan tajribalarda polianilin va

metall oksidining o‘zaro nisbati 2:1 va metall oksidi aralashmalarida oksidning o‘zaro nisbati esa 1:1 qiymatda saqlandi.

Kislород sensorini ishlab chiqish uchun gazsezgir material tarkibining optimal nisbati sensorning signal va signal berish vaqtini taqqoslash va bir xil sharoitda xar-hil sensorlardan olingan sensor signalingin tiklanishi bilan tavsiflanadi.

1-jadvalda Tarkibi turli xil bo‘lgan plyonkalar asosida ishlab chiqilgan sensorlarning kislорodga sezgirligini aniqlash natijalari keltirilgan.

1-jadval. Kislорodni aniqlashda sensor signalingin gazsezgir material tarkibiga bog‘liqligi ($\text{SO}_2 = 1.0\%$, $n=5$, $P=0.95$).

T/r	Gazsezgir materialning tarkibi	Kislород uchun sensor signali, mV		
		$x \pm \Delta x$	S	$Sr \cdot 10^2$
1	ПАНИ	2±0,1	0,09	1,15
2	ПАНИ+ SnO_2	11±0,2	0,15	0,40
3	ПАНИ+ Ga_2O_3	14±0,2	0,14	0,89
4	ПАНИ+ La_2O_3	12± 0,3	0,21	0,76
5	ПАНИ/($\text{SnO}_2+\text{Ga}_2\text{O}_3$)	25±0,5	0,23	0,72
6	ПАНИ/(SnO_2+ La_2O_3)	17±0,5	0,38	0,51
7	ПАНИ/($\text{Ga}_2\text{O}_3+\text{La}_2\text{O}_3$)	19±0,5	0,51	0,86

1-jadvaldagi olingan malumotlardan kislорodni aniqlashda gazsezgir material sezgirligining quyidagi ketma-ketlik qatorini ko‘rish mumkin: $\text{PANI}/(\text{SnO}_2+\text{Ga}_2\text{O}_3) > \text{PANI}/(\text{SnO}_2+\text{La}_2\text{O}_3) > \text{PANI}/(\text{Ga}_2\text{O}_3+\text{La}_2\text{O}_3) > \text{PANI} + \text{SnO}_2 > \text{PANI} + \text{Ga}_2\text{O}_3 > \text{PANI} + \text{La}_2\text{O}_3 > \text{PANI}$. Sensorlar kislорodni aniqlashda sezgirligini kamayib borishi tartibida joylashtirilgan. 1-jadvaldagi ma‘lumotlardan, kislорodni aniklashda eng yuqori sezgirlik $\text{PANI}/(\text{SnO}_2+\text{Ga}_2\text{O}_3)$ tarkibli gazsezgir plyonka asosida olingan sensorga mos kelishini ko‘rishimiz mumkin. Barcha holatlarda ishlab chiqilgan kislорod sensorlari uchun signal o‘zgarishi va signalni qayta tiklanish tabiatini ularning sezgirlik qatoriga mos keladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha ishlab chiqilgan sensorlar orasida gazsezgir materiali $\text{PANI}/(\text{SnO}_2+\text{Ga}_2\text{O}_3)$ tarkibli bo‘lgan sensor eng yuqori ekanligi aniqlandi. Shuning uchun keyingi tajribalarda kislорodni anniqlovchi sensor uchun gazsezgir material sifatida $\text{PANI}/(\text{SnO}_2+\text{Ga}_2\text{O}_3)$ ishlatildi. Signalni qayta tiklanish vaqtini (signalni boshlanish vaqtini $t_{0,1}$) signalning maksimal qiymatga erishish vaqtidan (ko‘rsatkichlarni belgilash vaqtini $t_{0,9}$) taxminan 2.5 marta (23/58) ko‘proq bo‘lishi kuzatildi. Bu, ehtimol, GSM yuzasida ammiakni desorbsiyalash qiyinligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

- Павленко В.А. Газоанализаторы. –М.: Машиностроение, 1965. -205 с.
- Тхоржевский В.П. Автоматический анализ химического состава газов.- М.: Химия, 1969,- 243 с.

3. Ceyhun Ilhami, Karagolge Zafer. Determination of the oxygen content in the air // Jour. Chemistry. 2004. -№ 4 (13). -P. 283-288.
4. Conder K., Pomjakushina E., Soldatov A., Mitberg E. Oxygen content determination in perovskite-type cobaltates // Mater.Res.Bull. 2005. -№2 (40). -P.257-263.
5. Липнин Ю.А. Твёрдоэлектролитный газоанализатор кислорода в отходящих дымовых газах: Дис... канд. техн. наук. –Ангарск: 2002. -11-12 с.
6. Аманназаров А.А., Шарнопольский А.И. Методы и приборы для определения кислорода (газовый анализ). – М.: Химия, 1988. – 307 с.
7. Никольская Е. Ю. Портативные электрохимические сенсоры для газового анализа. Современное состояние вопроса на Западе. // Науч.-техн. вестн. СПбГУ ИТМО, 2004. -№15. -С. 237-241.
8. С. В. Баран. Электрохимические газоанализаторы для обнаружения и измерения концентраций токсичных газов и кислорода // Журн. Техника без опасности. –Минск. 2006. -№ 1 (14).
9. МЭ Эшкобилова **ТАБИЙ ГАЗ ВА МЕТАННИ АНИҚЛОВЧИ ЯРИМЎТКАЗГИЧЛИ СЕНСОРЛАР УЧУН МЕТАЛЛ ОКСИДЛАРИ АСОСИДА ГАЗ СЕЗГИР НАНОКОМПОЗИТ ПЛЁНКАЛАР СИНТЕЗИ/** ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2 Journal of Universal Science Research, 2024/ 267-275c
10. Eshkobilova Mavjuda Ergashboyevna Xodiyeva Nargiza Djurakulovna, Ortqov Shodiyor, Abduraxmonova Zamira Ergasgboevna YONUVCHAN GAZLARNING ANIQLASHNI OPTIK USULLARI VA ASBOBLARI/ Research Focus International Scientific Journal/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.11221111> 226-230
11. M.E.Eshkobilova Musayev Muhammadjon Aziz o'g'li, Z.E.Abduraxmonova. GAZLAR ARALASHMASI TARKIBINI NAZORAT QILISHNING ELEKTROKIMYOVIIY USULLARI VA ANALIZATORLARI/ Research Focus International Scientific Journal/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.11221067>
12. Eshkobilova Mavjuda Ergashboyevna Xodiyeva Nargiza Djurakulovna, Ortqov Shodiyor, Abduraxmonova Zamira Ergasgboevna ZOL-GEL TEXNOLOGIYASI BO'YICHA NANOKOMPOZIT MATERIALLAR ISHLAB CHIQISH/ JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH/ ISSN E: 2181-4570 SJIF 2024 = 5.073/ 43-57стр
13. Эшкобилова Мавжуда Эргашбоевна/ ГАЗ СЕНСОРЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ СОҲАСИДА ТЕРМОКАТАЛИТИК ВА ЯРИМЎТКАЗГИЧЛИ СЕНСОРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ/ JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH/ ResearchBib Impact Factor: 6.4/ 2023, SJIF(2023)-3,778 ISSN E: 2181-4570/ 226-230стр
14. Shaxriev Sultonmurod Baxodiovich Toshboev Feruz Nizomiddinovich Eshkobilova Mavjuda Ergashboevn/ GAZ ARALASHMALARINI NAZORAT QILISHNING TERMOKATALITIK USULI/ JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH/ ResearchBib Impact Factor: 6.4/ 2023, SJIF(2023)-3,778
15. Эшқобилова Мавжуда Эргашбоевна Абдурахмонова Замира Эргашбоевна/ ЁПИҚ ЭКОЛОГИК ТИЗИМЛАР ҲАВОСИДА ИС ГАЗИ ВА МЕТАННИ ТҮПЛАНИШИННИ НАЗОРАТИ УЧУН СИГНАЛИЗАТОР/ Research Focus International Scientific Journal/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.10714493>

16. Эшкобилова Мавжуда Эргашбоевна Суланов М.М., Абдурахмонов Э., Сманова З.А./ Активность и селективность катализатора термокаталитического сенсора углеводородов/ Ilmga baxshida umr mavzusidagi universitet miqyosidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari/ Jizzax/26-37 стр
17. Abdurakhmanov Ergashboy. Eshkobilova Mavjuda. Zol-gel synthesis of nanocomposites and gaseous materials. The International Conference on “Energy-Earth-Environment-Engineering”.стр 84-85. 2023 Tashkent, Uzbekistan
18. Tolibov A. A Shukurova D. B Abduraxmonov E. Eshkobilova M. E Egamov U. Metanning aniklovchi TYAG-CH4 gaz analizatorning metrologik tavsiflariga turli omillarning ta’siri. Research focus | volume 2 | issue 11 | 2023 ISSN: 2181-3833.
19. Sidikova X.G. . Abduraxmanov E., Sultanov M.M., Eshqobilova M.E. Kremniyli g‘ovak materialarning sintezi va ularning xususiyatlarini o‘rganish. O‘zbekiston milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni 450-451.toshkent
20. Abduraxmanov E. Eshkobilova M.E., Sidiqova X.G‘., Smanova Z.A\Gazlar tarkibidan uglerod (II) oksidini nazorati uchun yarimo‘tkazgichli sensor yaratish\ “Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnali \43-57 \Samarqand
21. Eshkobilova M. E., Xodieva N., Abdurakhmanova Z. E. Thermocatalytic and Semiconductor Sensors for Monitoring Gas Mixtures //World Journal of Agriculture and Urbanization. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 9-13.
22. Eshkabilova M. et al. Development of selective gas sensors using nanomaterials obtained by sol-gel process //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2022. – Т. 2388. – №. 1. – С. 012155.
23. Abdurakhmanov E. et al. Development of a selective carbon monoxide sensor //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 839. – №. 4. – С. 042078